

AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI.

Xasanova Nargiza
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Turizm” kafedrasi katta o’qtuvchisi
Rahmonova Shahzodabonu
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
“Turizm” yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola Amir Temur harbiy yurishlaridan oldin lashkarlarining jangovar shayligi, anjom-aslahalar bilan ta’milanganligi va ularning sozligi qay darajada e’tibor qaratilganligini kuzatish orqali qo’shinni jang oldi mas’uliyatini oshirishi borasidagi tajribasini o’rganishga bag‘ishlangan Boyazid I Yildirim o’rtasidagi elchilik aloqalari, ikki sarkardaning qulagan harbiy taktikasi.

Kalit so‘zlar: ko‘rik, qurol-yarog‘, ta’minot, jangovor ruh.

Abstract: This article is dedicated to the study of Amir Temur’s experience in increasing the pre-battle responsibility of the army by observing how much attention was paid to the combat readiness of his troops, the provision of equipment and supplies before the military campaigns .Bovazid I Yildirim diplomatic relations between the two generals, the fallen military tactics.

Key words: inspection, weapons, supply, fighting spirit.

KIRISH

Temurbek ibn Tarag‘ay ibn Abag‘ay 1336-yilning 9-aprelida Kesh (hozirgi Shahrisabz) ga qarashli Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida dunyoga kelgan. Kesh shahri Samarqanddan taxminan 3 farsax masofadagi uzoqlikda joylashgan.XIV asrning 60-yildagi siyosiy parokandalik davrida Movarounnahr siyosat maydoniga Amir Temur chiqadi va ulkan saltanat tuzdi. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashxur sarkarda sifatida etirof etilgan buyuk siymodir.

Dunyoda birinchi marotaba yengilmas muntazam armiyaga asos solgan Sohibqiron Amir Temurning harbiy daholari yaqqol ko‘zga tashlanib kelmoqda. Amir Temurning harbiy ilmi borasidagi betakror zakovati jahon sarkardalari uchun ulkan saboq bo‘lib keldi va hozirgi kunda ham uzliksiz ravishda o’rganilib borilmoqda. Uning nomi va amalga oshirgan ishlari Sharq va G‘arb mamlakatlari harbiy

mutaxassislari o‘rtasida juda ma’lum va mashhurdir. Sohibqironning umir bo‘yi jangu jadallarda va safarlarda yurishi, ko‘plab mamlakatlarni zabit etishi va yengilmas qo‘sinni oqilonan boshqarishi barcha harbiy harakatlarni zafarli amalga oshirish uchun namunadir. Ulug‘ Temur son jihatdan juda ko‘p sonli qo‘sinni say- harakatlarini qanday tarzda nazorat qilgani biz uchun jasorat va mahorat maktabidir. Amir Temur har bir harbiy yurishdan oldin o‘z lashkarlariga ogohlantiruvchi buyruq bergan. U buyruqni yetkazuvchi maxsus chopar bo‘linmalari mavjud bo‘lib, ular askarlarni yashash joylariga borib safarga otlanish to‘g‘isida habar berishgan. Buni eshitgan askarlar belgilangan maydonga zudlik bilan yetib kelishgan. Sohibqiron har bir yurishidan oldin harbiy ko‘rik o‘kazgan, buni o‘tkazishdan maqsad esa lashkarlarning safar va jang mobaynidagi turli xil kutilmagan vaziyatlarni oldindan bartaraf etish hamda askarlarga jangovor ruh bag‘ishlab, ularning har tomonlama zarur ta’mintonini butlanganligini ko‘zdan kechirish bo‘lgan. “Yurish oldidan ko‘rik qilib, lashkarim qayergacha borib yetishini bilmoxchi bo‘ldim. Qarasam, to‘rt farsang masofada lashkarim saf tortib turardi”[1]. Ko‘rikdir nafaqat jangovor qismlar, shuningdek ularni qurol-yarog‘, oziq-ovqat, kiyim-kechak zaxiralari ortilgan bir qator og‘ir karvonlar ketma-ket o‘tkazilgan [2]. Shu bilan birga musiqachilar, muxandislar, tabiblar va shu kabi o‘ziga xos bo‘linmalar va anjom-aslaxalarini mavjudligini tekshirgan. Yetarli miqdorda cherik jam bo‘lgach, barcha qo‘sish turlari – yoychilar, nayzavarlar, qoruandozlar, sangandozlar, taxshandozlar, manjanaq, arroda va turicharx otuvchilar hamda boshqa askariy qisimlar ko‘rikdir o‘tishgan. Temurbek armiyasida ichiga yonuvchi modda naft solingan ko‘zachalar irg‘ituvchi o‘t sochish quroli – ra’dning uzliksiz yetkazib berishni ta’minlovchi maxsus to‘pchilar – ra’dandozlar mavjud bo‘lgan[3]. Sohibqironning bunday qat’iligi va o‘ta talabchanlik harakatlari jangda g‘anim ustidan qozoniladigan g‘alaba uchun dastlabki qadam vazifasini o‘tar edi. Amir Temur bunday ko‘rik o‘tkazishi bilan bir tomonidan jangchilarining aslaxalarini tekshirsa, ikkinchi tomonidan ulardagi yengilmas kuch bo‘lgan jangovor ruhini ko‘tarar edi. Ulug‘ Amir butun qo‘sini oldida ularga bo‘lgan yuksak ishonchini bildirar edi.

Amir Temur yaqinlashib kelganda, qo'shindagi har bir qism boshlig'i otidan tushib, unga o'z qismini ko'rsatar, jangchilarning abjirligi va chaqqonligini namoyish qilar, keyin tiz cho'kib, yerni o'par, Amir Temur sha'niga duo o'qib, uning g'alabalarini olqishlab, kerak bo'lganda uning uchun o'z jonini tikishga ham tayyor ekanligini izhor qilardi. Amir Temur qo'shin qisimlari yoniga yaqinlashishi bilan jangchilarning hayqiriqlari Dashti Qipchoqni larzaga solardi [4]. Amir Temur lashkarlari, qurol-yarog', anjom-aslaxa va qo'shining soni bilan ruhiy holatini bilish uchun kelgan ayg'oqchilar buni ko'rib dahshatga tushar edi. Aksincha dushman tomonidan tashrif buyurgan elchilarni esa ushbu ko'rikka taklif etardi. Temurning gerblar bilan bo'lgan janggida ham musiqachilarning xizmati beqiyos bo'lgan. Mixail Ivanin o'zining "Ikki buyuk sarkarda. Chingizhon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi" asarida keltirilihsicha, "Astoydil himoyaga otlangan gerblar Temur qo'shnlari hayqirig'i, karnay va nog'ora sadolarining tog'dagi aks sado bilan qaytishidagi shovqindan shu qadar qo'rqiб ketdilarki, natijada bor-yo'qlarini tashlab, har tarafga qochishga majbur bo'ldilar" [7]. Amir Temur hattoki jangovar bo'linmalardan tashqari moddiy ta'minot bo'linmalari bilan ham to'laqonli qo'shin ko'rigida ishtirokini ta'minlagan. Qo'shin ko'rigida e'tiborni tortadigan tomoni safda "jangovar ayollar"dan tuzilgan bo'linmalar, tabiblar, qurol-yarog'larga texnik xizmat ko'rsatuvchi temirchilar, qurolsozlar, chodir va hammom tiklovchilar, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi karvonboshilar bilan o'zaro suhbatlashib, qo'shining moddiy va ma'naviy ta'minotini barcha omillar asosida, jumladan, mahsulotlar sifatli, belgilangan muddatida, uzlusiz va tizimli ravishda o'z jangchilari uchun barcha maishiy sharoitlarini yaratib bergen. Amir Temurning tarixdagi xizmati yana shundan ibkratki, u davlatchilik boshqaruv tizmi, ichki va tashqi siyosatning, tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi [8]. Amir Temurning bu kabi jang oldi amalga oshirgan ishlari uning barcha yurishlaridan zafar bilan qaytishiga asos bo'ldi. Biz Sohibqiron shaxsini chuqurroq o'rgana boshladik, o'zligimizni va ajdodlarimiz jasoratlarini yengilmas kuch qudratini anglay oldik [9]. Albatta, ularning harbiy salohiyati, jang maydonidagi qo'llagan strategiyasi va taktikasi – bu alohida

boshqa mavzu. Lekin bu ulug‘ sarkardaning uzoqni ko‘ra bilishi, o‘z vaqtida kerakli bo‘lgan tadbirlarni amalga oshirib, o‘z askarlari qalbida chinakam vatanparvarlikni, jangovar ruhni singdira olgani biz uchun ulkan ibratdir.

1400-yilga kelib Amir Temurning Boyazid I Yildirim va Misr sultonı Faraj bilan munosabatlari keskinlashadi. Ikki davlatning tashqi siyosatidagi asosiy masala Yaqin va O‘rta Sharqda hukmron bo‘lish da‘vosi kuchayishi edi. Amir Temurning Gurjiston va Suriyani egallab olishi natijasida ikki turkiy davlat chegarasi bevosita kesishadi. Qoraqo‘yunli sulolasi hukmdori Qora Yusuf va Sulton Ahmad Jaloyirning Boyazid I bilan ittifoq tuzishi temuriylar davlati chegarasi uchun rahna solardi. Usmoniylar davlati sultonı Boyazid I Yildirim bilan o‘zaro nizoli masalalarni hal etish borasida Amir Temur u bilan to’rt marotaba maktub almashadi. Amir Temur yangi yurishini boshlayotgan bir vaqtda Boyazid I Yildirimga elchi yuborib birgalikda harakat qilgan holda, o‘zi boshchiligidagi qo‘sishin Kavkazdan, usmoniylar esa Bolqondan Oltin O‘rdaga hujum qilishini so‘raydi Boyazid I esa qo‘pol va keskin javob yo‘llaydi. Amir Temur va Boyazid I Yildirim o‘rtasidagi elchilik aloqalari tarixchilar tomonidan turlicha talqin qilinadi. A.Muhammadjonovning “Temur va temuriylar sultanati” asarida keltirilgan ma‘lumotga ko‘ra Boyazid I o‘z elchilik maktubida Temurga birgalikda Yevropaga qarshi kurashish imkoniga ishora qilgan holda birlashish taklifini ilgari suradi buni Amir Temur rad qilib,o‘ziga bo‘ysunmagan, usmoniylar saroyida panoh topgan turkmanlarning Oqqo‘yinli va Qoraqo‘yinli qabilalarning boshliqlarini unga topshirishni talab qiladi. O‘zaro muzokaralar davomida har ikki hukmdor murosa yo‘liga kelmasligini anglagan holda katta jang uchun zimdan tayyorgarlik ko‘radi. Sohibqiron hazratlarining turk sultonı bilan bo‘lgan elchilik maktublari asosan uch yo‘ldan birini tanlashi kerakli borasida bo‘ladi, ya‘ni musulmonlar shahriga zarar yetkazgan Qora Yusuf boshchiligidagi qaroqchi va yo‘l to‘sarlarning kirdikorlarini to‘xtatmoq uchun ularni o‘ldirishi kerakligi, bo‘lmasa ularni temuriylar qo‘liga berishini shart qilib qo‘yadi. Agar (Boyazid I Yildirim) ikki shartdan birini ham qilmasa ularni mamlakatidan quvg‘in qilishini so‘raydi, ana shunda ikki o‘rtada do‘stlik va ittifoq barpo bo‘lib, kofirlar bilan bo‘ladigan har qanday jangga yordam

ko‘magini berishini aytadi. Boyazid I Yildirimning javob maktubi ochiqdan-ochiq jangga chaqiruv bo‘lib, Amir Temurni zolim kofirlarning eng ashaddiysi deya qari ko‘ppakka qiyoslab, jang maydoniga kelmay ortga chekinganning xotini uch taloq bo‘lishi kabi juda qo‘pol so‘zlar bilan yakunlanadi. Sohibqiron vazminlik ila javob maktubini yo‘llab, qirq yillik umrini Alloh uchun jihod qilishga sarflaganini bayon qilgan holda, turk sultonini g‘ayri dinlarga qilgan so‘nggi yurishlari muvaffaqiyatsiz bo‘lganini unutmasligini va kibrga berilmay javob maktubini to‘g‘ri yozishni fazilat anglab, o‘zini va xalqini xarob bo‘lishdan saqlashini aytadi. Amir Temur usmoniyalar saltanatiga yurish qilib uning kuchiga zarar yetkizib kofirlarga yordam berishni istamasligini bildirib, javob maktubini samimiyl salom va hurmat asosida yozishini aks holda qalamlar ishini qilichga topshirishini ta‘kidlaydi. Temur va Yildirim I o‘rtasidagi uchinchi, to‘rtinchi maktub almashishlari ham murosa yo‘lini topishga xizmat qilmaydi. Sohibqironning sulh tuzishga bo‘lgan urunishlari zoye ketib, eng so‘nggi maktubini usmoniy davlati elchilar Sungur, Ahmad va Hoji Boyazid orqali yuboradi. Ikki yirik saltanat sohiblarining o‘zaro munosabatlarini kuzatib turgan Sharqiy Yevropa davlatlari Amir Temur bilan ittifoq tuzishga intiladilar. Boyazid I qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan 1401-yilning avgust oyida Konstantinopolning muvaqqat hokimi Ioann VIII Paleolog Qarobog‘ga Temur qarorgohiga Dominikan monaxlari Frencis bilan Aleksandrni elchi qilib yuboradi. Venetsiya Temur Boyazid I ga qarshi urush boshlagudek bo‘lsa kemalar bilan yordam qilishini va‘da beradi. Xristian olami Amir Temur siyosida o‘zlarini usmoniyalar hujimlaridan asrovchi xaloskor sifatida ko‘radi. Natijada, Sharqiy Yevropa davlatlari Amir Temurni qo‘llay boshlashadi. Ikki hukmdorning ham umri jang-u jadallarda kechgan, sarkardalik qobiliyat yuqori edi. Harbiy yurishlarda qo‘llaniladigan taktikalar ham bo‘lajak jang taqdirini o‘zgartirishga qodir bo‘lib, jang oldi Boyazid I askarlarining ruhiyatini tushkunlikka uchrashiga asosiy sabab sifatida bir necha oydan buyon maosh ololmayotgani bo‘lib, noroziliklarga sabab bo‘ladi, (vaziyatdan foydalangan Temur tatarlarni o‘z tarafiga og‘dirib oladi) ulardan farqli ravishda Temur qo‘smini jang oldidan yaxshigina haq oladi (Temur Yevropadan olgan hadyalarini Rum yurishi uchun

sarflaydi). Bu omil ham jang taqdirini hal qiluvchi faktorlardan biri bo‘ladi. Bu vaqtida Usmoniyalar sultanatida ichki ziddiyat va noroziliklar ham bo‘lib, sultonning asosiy e‘tibori Onado‘liga emas, Bolqonga qaratayotganidan norozi kuchlar ko‘payadi, bu Sohibqironning bo‘lajak g‘alabasiga munosib hissa qo‘shadi. Sohibqiron o‘z qo‘shini bilan Sharqiy Onado‘liga 1386-yili kelib, Arzinjon shahri yaqinida turklarning katta harbiy qo‘shinini mag‘lub etib, 1395-yilda navbatdagi hujumi natijasida usmoniyarlarning Sivosgacha bo‘lgan hududlarini egallaydilar. 1400-yilning 9-avgustida Temurbek ulkan cherik bilan Sivasga keladi, u Qoradengiz va Armonistonga tutash bo‘lib unga Turkiya sultonining tong‘ich o‘g‘li Sulaymon (ba’zi manbalarda Ertug‘rul nomi bilan bayon etilgn) hokim edi. Shaharni 18 kunlik qamaldan so‘ng, shu yilning 26-avgustida zabit etiladi. Usmoniyalar qo‘shinining asosiy qismi piyodalar bo‘lib, sipohiylar (yengil qurollangan otliqlar) serblarning og‘ir qurollangan otliq askarlari qo‘shinda suvoriy qismi hisoblangan, Amir Temur lashkarining asosini esa turkiy va mog‘ullardan iborat otliq askarlar tashkil etib, Rum yerlarini yaxshi biluvchi qulavuzlar(yo‘lboshlovchi)ning borligi ham jangga munosib tayyorgarlik ko‘rilganiga isbotdir. 1402-yilning mart oyida Amir Temur qo‘shini bilan Onado‘lining shimoli-sharqiga kirib keladi, Samarcandga chopar yo‘llab nabirasi Muhammad Sulton ibn Jahongir Mirzoga atoqli sarkarda Amir Xoji Sayfiddin hamrohligida madad kuchi bilan yetib kelishini amr qiladi. Frot daryosining g‘arbiy sohilida joylashgan Kemox qal‘asini egallah bo‘lib jang harakatlari 1402-yilning may-iyun oylarida bo‘lib qal‘ani egallah vazifasini valiahd zimmasiga yuklanadi. Temur va Boyazid I o‘rtasidagi jang 1402-yilning 28-iyulida Anqara yonida bo‘ladi[8]. Ikki hukmdor qo‘shining soni manbalarda turlicha talqin qilinib, Sharafiddin Ali Yazdiy yozishicha Temur qo‘shini soni 800000 jangchidan iborat bo‘lib, janglarda, qal‘alarni egallah jarayonida, turli yuqumli kasalliklar natijasida, egallangan garnizonlarda qoldirilgan va oziq-ovqatni qo‘riqlashga qolgan askarlar natijasida lashkar soni 300000 yoki 350000 ga qisqargan. Boyazid I lashkari 200000 yoki 250000 kishini tashkil etgan. Anqara jangidan oldin Boyazid I ning eng issiq kunda ov uyushtirishi natijasida 5000 kishi halok bo‘ladi, bu yirik jang oldi o‘z askarlarining sonini kamayishiga olib keladi. Temur va Boyazid I

o‘rtasida hal qiluvchi to‘qnashuv 1402-yilning 25-iyulida bo‘lib o‘tadi. Sohibqiron qo‘shini chap qanotiga uning kenja o‘g‘li Shohrux Mirzo qo‘mondonlik qiladi. O‘ng qanotni esa Mironshoh Mirzo boshqaradi. Samarqanddan kelgan otliqlar va zirhli fillardan iborat markazni Temurning nevarasi Muhammad Sulton jangga olib kiradi. Ancha keksayib qolgan sohibqironning o‘zi esa markaz ortidagi zaxira qo‘shiniga qo‘mondonlik qiladi. Rumeliya (Bolqon yarimoroli turklar tomonidan shunday atalgan) va Anadolu turkman kuchlaridan iborat usmonli qo‘shinining chap qanotini sulton Boyazid I ning o‘g‘li Sulaymon Chalabiy boshqaradi. O‘ng qanotda esa og‘ir zirhli serb otliqlari va Anadoluning uzoq o‘lkalaridan kelgan turkman suvoriyatlari Serbiya hukmdori Stefan Lazerovich yetakchiligidagi jangga kiradi. Boyazid Yildirimning o‘zi esa yanichar va azap (Usmonli qo‘shini yengil qurollangan kamonchi-piyodalari) qo‘shini bilan markazda joylashadi, unga o‘g‘illari Iso, Muso va Mustafo hamrohlik qiladi. Usmonli zaxira qismini sipohiyalar tashkil qiladi. Jang Movarounnahr lashkari qanotlari hujumi bilan boshlanadi. Usmoniyarning o‘ng qanoti Shohrux Mirzo boshchiligidagi temuriylar qo‘shini hujumini qaytaradi va qarshi hujumga o‘tadi. Boyazid I va sarkardalarning maslahatiga qaramasdan ichkarilab ketgan Stefan Lazerovich qo‘shini ortdan hujumga uchrab asosiy qo‘shindan uzib qo‘yiladi va qattiq zarbaga uchraydi. Natijada ular chekinishga majbur bo‘ladi. Movarounnahr qo‘shini o‘ng qanoti Mironshoh Mirzo boshchiligidagi Sulaymon Chalabiy qo‘shiniga hujum boshlaydi. Kichik Osiyo turkmanlari tezda pozitsiyalarni boy beradi va kutilmaganda Usmoniyalar hujumi davrida qochib ketib va Temur tarafiga o‘tgan sobiq rahbarlarini ko‘rgan turkmanlar Temur qo‘shini tarafiga o‘tadi va usmoniyalar kuchlariga hujum qiladi. Jang boy berilganini sezgan Sulaymon Chalabiy ishonchli askarlari bilan jang maydonini tark etishni boshlaydi. Biroq Usmoniyarning zaxiradagi sipohiyalar qo‘shini chap qanotga safarbar qilinadi va vaziyatni barqarorlashtiradi. Markazda Boyazid qo‘shinlari Temurning otliq qo‘shinlari bilan muvaffaqiyatli jang olib boradi. Turkiy-mo‘g‘ul otliqlarning otdan turib kamondan o‘qqa tutishiga javoban usmonli qo‘shini azaplari piyoda turib kamondan o‘q otadi, bu temuriy qo‘shiniga g‘alaba olib kelgan otdan turib o‘qqa tutish uslubidan yaxshiroq

natija bera boshlaydi. Usmonli zaxira qismi chap qanotga safarbar etilgani, turk qo'shinining butun kuchlari jangga kirgani haqidagi xabarni olgan Amir Temur Samarqand qo'shini va fillarni jangga kirgizish payti kelganini biladi va nabirasi Muhammad Sulton boshchiligida qo'shinni markazga tashlaydi. Fillar ishtirokidagi bu hujum usmonli qo'shinini yakson qiladi. Boyazid I oz sonli yanicharlari bilan yaqin atrofdagi tepalikka ko'tarilib himoyaga kirishadi. Qurshovga tushib qolgan Boyazidni bir nechta sodiq vassalari, jumladan Stefan Lazerovich va sipohiylar oxirigacha qo'llab-quvvatlaydi. Stefan Lazerovich ritsarlari bilan uch marta qurshovni yorishga muvaffaq bo'ladi va har safar sultondan qochib ketishni so'raydi. Biroq mag'rur va qaysar Boyazid buni rad qiladi. Ehtimol u merosxo'ri Sulaymon Chalabiyning xavfsiz qochib ketishini ta'minlash uchun ham shunday qilgan bo'lishi mumkin. Nihoyat qochib ketishga qaror qilgan Boyazidni temuriy askarlari yo'lda asirga oladi. Temur usmoniy sultonlarni o'ldirmaydi[9].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Amir Temur Vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchilik taraqqiyotida beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur davlati Osiyo va Yevropaning mutloq xujayni sifatida Amir Temur boshchiligidagi temuriylar sulolasiga tan olindi. "Anqara jangi" gida ikki sultanat hukumadorlari o'zaro murosa yulini tanlashmadilar. kofirlarga qarshi kurashish o'rniga ko'plab musulmonlar qonini tukishdi. Sohohibquron Amur Temur Usmoniy shahzodalarini o'ltirmasdan ularni hokimyatga saqlaydi. Usmoniyalar shahzodasi o'rtasida toj-u taxt uchun kurash saltanat inqiroziga sabab bulgan. Konstantinopol va butun Yevropaga buylab islom dinini yoyishga bulgan urunishini biroz ortga surgan bu yurish har ikki hukimdorning yo'l quygan xatolaridan biri sifatida tarixda qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur Ko'ragon. Temur tuzuklari – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan". 2018 – 159 b. "Экономика и социум" №2(105) 2023 www.iupr.ru

2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tojik tilidan tarjima, kirish so'z va izohli lug'atlar tarix fanlari kandidanti A. O'rinboxevniki. Toshkent, 1969, - 91-92 betlar.
3. Yakubovskiy A. Yu. Temur ... b. – 68 b.
4. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizhon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, – 233 b.
5. Lyusen Keren. Amir Temur Saltanati. “Fan”, Toshkent. 2018. – 86 b.
6. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizhon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, - 258 bet.
7. Mixail Ivanin. Ikki buyuk sarkarda. Chingizhon va Amir Temur: harbiy san'ati, strategiya va taktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, - 252
8. Ibn Arabshoh ajoyib al -maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) T.;Mehnat,1992.68-b
9. B.J. Eshov.A.A.Odilov Uzbekiston tarixi-T.2020.24-6.